

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI HARBIY TERMINLARNING
TAKOMILLASHUVI VA TILSHUNOSLIKKA KIRIB KELISH TARIXI****Gulzebo Nuraliyeva***DTPI ingliz tili o‘qituvchisi***Gulsevar Boboyeva***DTPI xorijiy til va adabiyoti:**ingliz tili yo‘nalishi talabasi***Jo‘rabekova Robiya***DTPI xorijiy til va adabiyoti:**ingliz tili yo‘nalishi talabasi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy terminlarining shakllanishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning lug‘aviy tizimda mustahkamlanishi hamda tilshunoslik faniga kirib kelish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilidagi harbiy terminlarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va adaptatsiyasi, sohalararo integratsiya jarayonlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy terminologiya, leksikologiya, tilshunoslik, o‘zlashma so‘zlar, tarjima, lingvistik tahlil, semantika, termin tizimi.

Гульзебо Нуралиева*Преподаватель английского языка ДТПИ***Гульсевар Бобоева***Студентка кафедры иностранных языков**и литературы: английский язык,**ДТПИДжурабекова Робия**Студентка кафедры иностранных языков**и литературы: английский язык, ДТПИ***Абстрактный**

В статье анализируется формирование военных терминов в английском и узбекском языках, этапы исторического развития, закрепление их в лексической системе, процессы вхождения их в науку языкознания. Также будут рассмотрены вопросы перевода и адаптации английской военной терминологии на узбекский язык, а также междисциплинарные интеграционные процессы.

Ключевые слова: военная терминология, лексикология, лингвистика, заимствования, перевод, лингвистический анализ, семантика, терминосистема.

Gulzebo Nuraliyeva*Teacher of English at the State
Pedagogical University***Gulsevar Boboyeva***Student of Foreign Language and Literature:
English at the State Pedagogical University***Jurabekova Robiya***Student of Foreign Language and Literature:
English at the State Pedagogical University*

Abstract

This article analyzes the formation of military terms in English and Uzbek, the stages of historical development, their consolidation in the lexical system and the processes of their introduction into linguistics. It also examines the translation and adaptation of military terms in English into the Uzbek language, and the processes of interdisciplinary integration.

Keywords: military terminology, lexicology, linguistics, loanwords, translation, linguistic analysis, semantics, term system.

Lingvistika yoki tilshunoslik deganda biz tillarni tubdan o'rganuvchi fanni tushunishimiz kerak. Tilshunoslikning esa bir qancha bo'limlari bor ya'ni tilni yanada chuqurroq o'rganish uchun. Misol uchun, sintaksis bo'limi gaplarning tuzilishi to'g'ri yozilganligini o'rganadigan bo'lim hisoblanadi. Yana bir muhim tilshunoslik bo'limlaridan biri bu morfologiya hisoblanib, ushbu bolimda so'zlarning tog'ri tuzilganligi o'rganiladi. Keyingisi esa, Fonetika bo'limidir bu bo'limda nutq tovushlari o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Terminologiya — har qanday fan, texnika yoki amaliy sohaning asosiy lug'aviy komponentidir. Harbiy soha terminlari esa maxsus ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, har bir tilda bu guruh terminlarining o'ziga xos rivojlanish yo'li mavjud. Ingliz tilida harbiy terminlarning boyligi va barqarorligi til tarixida ko'plab urushlar, global siyosiy o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq. O'zbek tilida esa harbiy terminlar tarixiy manbalarda, xususan, turkiy yozma yodgorliklar va keyinchalik rus tili orqali kirib kelgan zamonaviy atamalar orqali shakllangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilidagi harbiy terminlarning shakllanishi va rivojlanishi Ingliz tilida harbiy terminlarning shakllanishi qadimgi anglosakson davridan boshlangan. Masalan, shield (qalqon), spear (nayza), sword (qilich) kabi terminlar qadimiy german tillaridan

o‘zlashgan. O‘rta asrlarda Fransiya bilan bo‘lgan aloqalar natijasida ko‘plab harbiy atamalar fransuz tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan (army, battle, soldier).

XIX–XX asrlarda, xususan Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida ingliz tilida harbiy terminlar sezilarli darajada kengaydi. Aviatsiya, artilleriya, strategiya, yadroviy qurollar, kibernetik xavfsizlik kabi sohalarning paydo bo‘lishi bilan yangi terminlar yaratildi: airstrike, nuclear warfare, cyberdefense, missile defense system va boshqalar.

So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot natijasida ingliz harbiy leksikoni yanada kengaymoqda, ayniqsa, drone, AI surveillance, smart weapons kabi yangi tushunchalar tilga kirib keldi.

O‘zbek tilida harbiy terminlarning shakllanishi O‘zbek tilida harbiy terminlarning dastlabki shakllari qadimgi turkiy manbalarda, masalan, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk”da uchraydi. “Sipoh”, “lashkar”, “jangchi”, “qilich”, “nayza”, “qalqon” kabi so‘zlar o‘sha davrda keng qo‘llanilgan.

XIX–XX asrlarda, ayniqsa Sovet davrida, harbiy terminologiyaning asosiy qismi rus tilidan o‘zbek tiliga kirib keldi. Masalan, komandir, tank, shtab, ofitser, diviziya kabi terminlar rus tili orqali o‘zlashdi. 1991-yildan so‘ng esa ingliz tilidagi harbiy terminlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayoni boshlandi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Mudofaa vazirligi, Harbiy akademiyalar va Tarjima markazlari orqali yangi harbiy atamalar o‘zbek tilida shakllantirilmoqda. Masalan, air defense – “havo hujumidan mudofaa”, cyberwarfare – “kiber urush” kabi atamalar standartlashtirilmoqda. Harbiy terminlarning tilshunoslikka kirib kelishi

Tilshunoslikda harbiy terminologiya alohida leksik-semantik qatlam sifatida o‘rganiladi. Ular semantik maydonlar, termin tizimlari, tarjima nazariyalari, terminlarning ijtimoiy-psixologik ta’siri kabi yo‘nalishlarda tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham harbiy terminlarning lug‘aviy bazasini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy ishlar ko‘paymoqda. H. Dadaboyevning “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” (2020) hamda N. Abdurahmonovanning zamonaviy harbiy terminlarga doir maqolalari bu borada muhim manba hisoblanadi.

Lingvistik jihatdan harbiy terminlar:leksik-semantik o‘zgarishlar (masalan, qorovul so‘zining zamonaviy harbiy ma’nosi)strukturaviy o‘zgarishlar (qisqartmalar: NATO, O‘RV, BTR);o‘zlashma so‘zlar (inglizcha drone so‘zining o‘zbekchaga moslashuvi – dron) orqali til tizimiga kiradi Ingliz va O‘zbek harbiy terminlarining qiyosiy tahlili

Inglizcha termin O‘zbekcha ekvivalenti Izoh *Missile* Raketa Rus tili orqali o‘zlashgan

Infantry Piyoda qo‘shinlari Tarjima orqali

Tank Tank O‘zlashgan, aynan qabul qilingan

Cyberwarfare Kiber urush Yangi tushuncha, tarjima asosida
Commander-in-chief Bosh qo'mondon So'z birikmasi asosida tarjima

XULOSA

Ingliz va o'zbek tillarida harbiy terminlar har ikkala tilning madaniy, tarixiy va siyosiy rivojlanishiga mos holda shakllangan. Ingliz tilidagi harbiy terminologiya global xususiyat kasb etgan bo'lsa, o'zbek tili bu jarayonda o'z tarixiy ildizlariga va tashqi ta'sirlarga tayanadi. Harbiy terminlarning tilshunoslikka kirib kelishi bu terminlarning fanlararo ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Ularni o'rganish orqali nafaqat til rivoji, balki ijtimoiy taraqqiyot haqida ham fikr yuritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Ozbekiston respublikasining 1995- yil 21-dekabrda davlat tili va togrisida gi qonuni yangi tahrirda qabul qilingan.
2. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy talim tizimini takomillashtirish Rivojlanish chora-tadbirlari togrisidagi qarori.
3. Ismoilov G. Ozbek tili terminologik tizimida sematik usulda atama yasalishi Filol.fan.nomz.diss.avtoref.Toshkent,2011 y.
4. Isaev R.R. otraslivoy terminosistema shakllanishining strukturaviy lingvistik va madaniy jihatlari M.:2013.diss.shakar fil.nauk-s. 23
5. Grinev Grinevich, S.V terminologiya: darslik, oliy oquv yurtlari talabalari uchun qollanma/Akademiya,2008-304r
6. Nelyubin J1.J1. Tarjima texnikasiga kirish(kognitiv nazariya va pragmatik jihat):darslik,nafaqa 3-nashr. Fan 2013-216 r.